

UNIVERSITET TALABALARINING INGLIZ TILIDA INSHO YOZISH BILIM VA KO'NIKMALARINI PEDAGOGIK INNOVATSIYALAR ORQALI OSHIRISH

Nizomov Feruz Raxmon o'g'li

O'zDJTU o'qituvchisi

Qirg'izboyev Umidjon Akramjon o'g'li

Tilavov Yo'ldosh

O'zDJTU talabalari

Annotatsiya: Respublikamizda ta'lim tizimiga oid "Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash" bo'yicha harakatlar olib borilmoqda. Mazkur maqola Universitet talabalarining ingliz tilida insho yozish ko'nikmalarini takomillashtirish uchun pedagogik innovatsiyalarni samarali qo'llash imkoniyatlarini tahlil qiladi. Ushbu jarayon talabalarning nafaqat insho yozish, balki inshoni strukturaviy shakllantirish va mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Shuningdek, talabalarning o'z fikrlarini ravon va mazmunli ifodalash, insho tarkibini mantiqan tuzish va grammatik aniqlik bilan bayon etish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ingliz ili, insho yozish ko'nikmalari, interfaol o'qitish usullari, AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari).

Annotation: In our country, efforts are being made to further improve the continuous education system, increase access to quality educational services, and train highly qualified specialists in line with the modern labor market's requirements. This article analyzes opportunities for effectively utilizing pedagogical innovations to enhance university students' essay-writing skills in English. This process aims to develop students' abilities not only to write essays but also to structure essays and conduct logical analysis. Particular attention is also paid to developing students' skills in expressing their thoughts fluently and meaningfully, logically organizing essay structures, and presenting ideas with grammatical accuracy.

Keywords: English language, essay-writing skills, interactive teaching methods, ICT (information and communication technologies).

Ingliz tilini til egalarining darajasida yoki unga yaqin darajada o'zlashtirish uchun o'qituvchilar ta'lim jarayonida barcha til ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar, topshiriqlar va darslarni tashkil etishi hamda an'anaviy o'rgatuvchi emas, balki

yo‘naltiruvchi (fasilitator) sifatida harakat qilishi lozim. Ushbu til ko‘nikmalari: tinglash (listening), so‘zlash (speaking), o‘qish (reading), va yozish (writing).

Oliy ta‘lim talabalarining ingliz tilida insho yozish ko‘nikmalarini oshirishda samarali usullardan biri bu - Collaborative Writing (Hamkorlikda yozuv) ya‘ni talabalarni kichik guruhlariga bo‘lish va ularga birgalikda insho yozish topshiriqlarini berish. Buning afzalligi talabalar o‘z fikrlarini boshqa talabalar bilan solishtiradi va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Yana shunday bir qancha usullardan; Peer Review (O‘zaro tekshiruv), Gamifikatsiya (o‘yin elementlarini joriy qilish). Bu usullar ham o‘z o‘rnida insho yozish bilimlarini yozishga juda katta turtki bo‘ladi.

Yozish til o‘rganish ko‘nikmalari orasida eng qiyinlaridan biri hisoblanadi, chunki yozuv jarayonida imlo qoidalari, grammatik tartib, so‘z boyligi va fikrlarning mantiqiy izchilligi kabi tilning muhim jihatlari o‘z ifodasini topadi. Ingliz tili o‘zbek tilidan grammatik tuzilishi, mazmuni, imlo va talaffuz qoidalari sababli, uni o‘rganish anchagina qiyinlik tug‘dirishi tabiiy. Ingliz tilidagi 26 harf va 44 tovushning mavjudligi so‘zlarni to‘g‘ri yozishni o‘zlashtirishni yanada murakkablashtiradi. Hozirgi kunda ko‘plab yozishmalar elektron shaklda amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, aksariyat imtihonlar qo‘lda yozishni talab qiladi. imtihonlarning yozuv qismi, fransuz yozuvchisi Volterning so‘zlari bilan aytganda, “Tovushlarni chizish” orqali amalga oshirilmoqda. Ingliz tilida yozish ko‘nikmalarini rivojlantirish bir qator muhim afzalliklarga ega:

- ingliz tilining grammatik tuzilishini tizimli o‘rganish;
- o‘quvchilarning ingliz tilida yozma bayon qila olish qobiliyatini rivojlantirish;
- inglizcha so‘zlarning to‘g‘ri yozilishini o‘zlashtirish;
- o‘quvchilarning aniq va asosli xulosalar bera olishiga ko‘maklashish;
- hikoyalar yozish mahoratini rivojlantirish.

Xulosa qilish mumkinki, ingliz tili dunyo hamjamiyatida tobora muhim o‘rin egallab borayotganligi sababli, uni yurtimizda ham zamon talablari asosida o‘rgatishni yo‘lga qo‘yish zarur. Bunda, ingliz tilini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tinglab tushunish, gapirish, o‘qish va yozish kabi to‘rt asosiy ko‘nikmani to‘laqonli o‘zlashtirish alohida o‘rin tutadi. Ushbu ko‘nikmalarning barchasini rivojlantirish tilni samarali o‘zlashtirishning asosi hisoblanadi. Til ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali xorijiy tillarni o‘rgatish jarayonini tizimli ravishda loyihalashtirish va rejalashtirish, shuningdek, bu jarayonni amalga oshirish uchun zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan malakali xorijiy til o‘qituvchilarini tayyorlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ergashova, S., Yadgarova, L., Ziyodulloeva, M., Norova, F., & Yuldashova, N. (2022). The principles of using computer technologies in the formation and development of students' language skills. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 13(Special Issue 6). <https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/2116>
2. Hadfield J. *Intermediate Communicative Games*. Edinburg: Addison Wesley Longman Ltd,
3. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari // –T.: Gʻ. Gʻulom, 2017. 70 b.
4. <http://dx.doi.org/10.1111/1467-9922.00232>
5. Isakulova , B. K. (2024). Role of leadership style in teaching process. *GOLDEN BRAIN*, 2(1), 615–619. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/6060>
6. Isakulova, B. K. (2023). Teaching a foreign language through didactic games to preschoolers. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 234–239. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3161>
7. Isakulova, B. K. (2023). The importance of teaching children English with early childhood with the help of game learning methods. *International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management*, 2(4), 352–360. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7813228>, <https://ijaretm.com/index.php/ij/article/view/339>
8. Isakulova, B. K. (2024). Didactic games as a means of learning preschool children learn English. *Zenodo*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10518781> <http://multidiciplinaryjournal.com/index.php/mm/article/view/104>
9. Tuxtayevich, K. I. ., Ahmatovna, P. S. ., Turgunbayevna, M. N., Rasulovna, R. M. ., Qizi, T. F. R. ., & Qizi, Y. N. A. . (2024). Different Approaches to Enhance Critical Thinking in Digital Education. *SPAST Reports*, 1(7). <https://spast.org/ojspath/article/view/5086>
10. Vandergrift L. (2003). Orchestrating Strategy Use: Toward a Model of the Skilled Second Language Listener. *Language Learning*, 53, 463-496
11. Yuldashova , N. A. qizi, & Ziyadulloeva , M. S. qizi. (2024). Essence of developing learners' communicative competence. *Golden Brain*, 2(1), 572–575. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/6050>